

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI
SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI**



Ro'yxatga olindi:

№ 52-602 20400

2024 yil 09 11

"TASDIQLAYMAN"

SamDU rektori:

R.I.Xalmuradov

2024 yil " " "

**«Arxeologiyada geografik axborot tizmlari»
FAN DASTURI**

Bilim sohasi:	200000 – San'at va gumanitar fanlar
Ta'lim sohasi:	220000 – Gumanitar fanlar (Tillardan tashqari)
Ta'lim yo'nalishi:	60220400- Arxeologiya

Fan/modul kodi		O'quv yili	Semestr	ECTS – Kreditlar	
AGA1205		2024-2025	2	5	
AGAT1305		2025-2026	3	5	
Fan/modul turi		Ta'lim tili		Haftadagi dars soatlari	
Majburiy		O'zbek		6	
1.	Fan nomi		Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Umumiy (soat)
	«Arxeologiyada geografik axborot tizmlari»		2-S 70 3-S 70	2-S 80 3-S 80	300

Fanning maqsadi (FM)

Fan mazmuni

"ARXELOGIYADA GIS" FANINING PREDMETI, TADQIQOT DOIRASI, MAQSADI VA VAZIFALARI

Arxeologiyada GIS fan sifatida. Arxeologiyada GIS fanining predmeti va vazifalari. Arxeologiyada GIS fanining rivojlanish tarixi. Tadqiqot ko'lamining o'sishi, uning bosqichlari. Arxeologiyada GISning o'quv rejasidagi fanlar bilan aloqadorligi.

GIS TARIXI

GIS yoki Geoaxborot tizimining shakllanish tarixi. GIS tizimining o'ziga xos xususiyatlari. GIS tizimining qo'llanilish yo'nalishlari GIS yoki Geoaxborot tizimining arxeologik tadqiqotlarda qo'llanishi. GIS tizimi yordamida arxeologik tadqiqotlarda qo'llanilish afzalliklari. Respublikamiz va xorijda GIS yordamida amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlar.

KARTOGRFIYA ASOSLARI

Xaritalar uchun geografik koordinatalarni tanlash haqida ko'rsatmalar. Xaritalar haqida tushuncha. Xaritalar turlari: geografik, siyosiy, tematik, yodgorliklar xaritalari va x.zo. Tarixiy xaritalar. Tarixiy xaritalardagi ob'ektlarni geografik xaritalar bilan bog'lash. Koordinatalar tizimi haqida ma'lumot. Geografik koordinatalar, proektsiyali koordinatalar.

GPS VA UNDAN FOYDALANISH ASOSLARI

GPS qurilmalari. Garmin, Oregon. Georeferencing asbobi va uning bandlari haqida ma'lumot. UTM, Pulkovo, WGS 84. GPS dan arxeologik tadqiqotlarda foydalanish usullari.

ARXELOGIYADA MASOFAVIY ZONDLASH

Distatsion zondlashning arxeologiyada qo'llash tarixi. Yer yuzida joylashgan ma'lumotlarni masofadan turib suratga olish borasidagi dastlabki kadam XIX asrda fotografiyaning kashf etilishi bilan bog'liq. Buning natijasida yer yuzidagi ob'ektlarni doimiy kayd etib borish imkoniyatiga ega bulindi. Birinchi marta aerofotosurat 1859 yilda Gaspar Turnashon tomonidan havo shari bilan olingan (50-rasm). Arxeologik ob'ektning birinchi suratlari – Stounxendjning – britaniyalik leytenant P.X.SHerp tomonidan 1906 yilda havo shari savatidan turib olingan. Yeryuzasida joylashgan ob'ektlar. Zondlashda qo'llaniladigan uskunalar. Zondlashni arxeologiya sohasida qo'llanilishi. Hozirgi vaqtda zondlash jarayonida malumotlarni jamlash.

GIS DASTURLARI VA ULAR BILAN ISHLASH ASOSLARI

GIS dasturlari. CORONA tizimi. Arc GIS, Mapinfo, Global mapper. Global mapper dasturiga xaritalar va koordinatalarni kiritish. Georeferencing asbobi va uning bandlari haqida ma'lumot.

ARC GIS ДАСТУРИ АРХЕОЛОГИЯ СОҲАСИДА. ARC GIS ВА УНИНГ ТАРКИБИЙ ҚИСМЛАРИ

Arc Catalog va uning funksiyasi, Arc Reader Arc Publisher va uning funksiyasi. Arc Scene va Arc Globe. Sheyp fayllar va ular haqida ma'lumotlar. Arc Catalog dasturida

sheyp fayllar yaratish. Yaratilgan sheyp fayllarni kooordinatalar tizimi bilan bog'lash. Arc GIS dasturida taxrirlash. Georeferencing asbobi va uning bandlari haqida ma'lumot.

ARXELOGIYADA ZAMONAVIY TADQIQOT YO'NALISHLARI VA ULARDA QO'LLANILADIGAN QURILMALAR.

Arxeologiyada zamonaviy tadqiqot yo'nalishlari Multidissiplinar tadqiqotlar va uning ahamiyati. Arxeobotanikani arxeologik tadqiqotlarda qo'llanilishi. Toshbuloq yodgorligida olib borilgan arxeobotanik tadqiqotlar. Toshbuloq yodgorligida olib borilgan bioraxeologik tadqiqotlar. Bioarxeologiyaning tadqiqot usullari.

ARC GIS DASTURIDA QATLAMLAR USTIDA ISHLASH

Qatlamlar va ular haqida ma'lumotlar. Ma'lumotlar freymi va ular haqida ma'lumot. Yaratilgan qatlamlarni Arc GIS dasturida yuklash. Ma'lumotlarni qatlamlar sifatida saqlash. Nuqtali, chiziqli va maydonli sheyp fayllar. Xaritada nuqtali, chiziqli va maydonli ob'ektlarni yaratish. Xaritada ob'ektlar uzunligi va maydon o'lchamlarini aniqlash. Selection asbobi va yodgorliklarning xususiyatlariga ko'ra aniqlash. Arc Toolbox asboblari va ularning funksiyalari. Simvollar ustida ishlash.

ARC GIS DASTURIDA E'DGORLIKLAR HAQIDA MA'LUMOTLAR JADVALINI YRATISH

Ma'lumotlar jadvali haqida tushuncha. Arc GIS dasturida ma'lumotlar jadvalini yaratish. Ma'lumotlar jadvalida ustunlar va qatorlarda yodgorliklar haqida kiritiladigan ma'lumotlar. Arc GIS va Excel. Excelda yaratilgan ma'lumotlarni Arc GIS dasturiga yuklash. Arc GIS dasturida yaratilgan ma'lumotlarni kompyuter xotirasida saqlash va chop etish. Arxeologik yodgorliklarning xaritada joylashish nuqtasi asosida jadval yaratish va uni Arc GIS hamda Google Earth formatlarida saqlash. Arc GIS ma'lumotlar jadvali ko'rinishi ustida ishlash. Cvs, KMZ, KML formatlari haqida ma'lumot.

GIS DASTURIDA ARXEOLOGIK YODGORLIKLAR XARITALARINI YARATISH VA UNI CHOP ETISH

GIS dasturi yordamida arxeologik yodgorliklar xaritasini tuzish. Xaritani Layout View ko'rinishiga o'tkazish. Yodgorlik xaritasiga shartli belgilar o'rnatish va ularni taxrirlash. Xaritaga o'lchamlarni, kompos, koordinatalar, yozuvli elementlarni o'rnatish. Grafik elementlarni o'rnatish. Xaritani chop etish funksiyasini sozlash. Diagrammalar o'rnatish. Yaratilgan yodgorlik xaritasi asosida xisobotlar tayyorlash va uni chop etish.

Arxeologiyada zamonaviy qurilmalar.

Geofizik tadqiqotlar va undagi qurilmalar. Arxeologik tadqiqotlarda geofizik usullarni qo'llash yodgorlikda qazishmalar olib bormasdan turiboq uning turini aniqlashga yordam beradi. Bu arxeologik qidirishlarga ketadigan vaqt va mablag'ni tejashga yordam beradi. Arxeologiklar o'z tadqiqotlarida 3 ta geofizik usulda: elektrorazvedka, magnitorazvedka va seysmorazvedka usulidan foydalanadi.

GPR-Georadar lokatsiyasi va bu yer qarini tekshirishning geofizik usulidir. Georadiolokatsiya inglizcha ground-penetrating radar (GPR) so'zlaridan olingan. Hozirgi kunda xorijda georadar asboblarning turli xillari ishlab chiqarilgan va qo'llanmoqda:

"Uchuvchisiz uchish apparatlari (dronlar)ning arxeologiyada qo'llanilishi samaradorligi

Dron. Hozirgi vaqtda arxeologik tadqiqotlarda zamonaviy uchuvchisiz uchish apparatlari

sinfga kiruvchi dronlardan keng foydalanilmoqda. Dronlar yordamida arxeologik tadqiqotlarni muvofiqlashtirish, yodgorliklar va uning atrofi topolani yaratish, qazishma tarxlarini olish, arxeologik razvedka ishlarida foydalanish mumkin.

Google Earth dasturi va uning tarkibiy qismlari.
Google Earth ya'ni Google yer sayyorasi dasturi Google kompaniyasining loyihasi hisoblanib, bu loyixa asosida sun'iy yulduzlar yordamida tushirilgan yer sayyorasi barcha kismalarining fotosuratlarini internet tizimiga joylashtirilgan. Google Earth dasturining imkoniyatlari. Google Earth dasturi yordamida qo'lga kiritilgan ilmiy natijalar.

№	III. Mashg'ulotlar shakli: seminar (S)
1.	Kirish. Fanning predmeti, maqsadi va vazifalari
2.	GIS tushunchasi. Uning arxeologiyada qo'llanilishi. (Yevropa va AQSh misolida)
3.	Kartografiya asoslari va kartagrafik bilimlar tarixi.
4.	Xaritalar va ularning turlari
5.	Siyosiy va ijtimoiy iqtisodiy xaritalar.
6.	Yurtimiz olimlarining kartografiya sohasida olib borgan ilmiy faoliyati.
7.	Arxeologiyada yangi zamonaviy qurilmalar.
8.	Zamonaviy qurilmalarning arxeologiya sohasida qo'llanilishi va uning yutuqlari.
9.	Yurtimizda arxeologik yodgorliklarning o'rganishda zamonaviy qurilmalardan foydalanish va uning natijalari.
10.	GPS ning arxeologiya sohasida qo'llanilishi.
11.	Arxeologik Tadqiqotlarda aerokosmik foto suratlardan foydalanish usullari
12.	Google Earth dasturining arxeologiya sohasida qo'llanish tarixi.
13.	Teodalit qurilmasining arxeologiyada qo'llanilishi.
14.	Georadar qurilmasining arxeologiyada qo'llanilishi.
15.	Uchuvchisiz uchish (Dron) apparatlarning arxeologiyada qo'llanilish tarixi.
16.	Suv osti arxeologiyasining rivojlanish tarixi.
17.	QGIS dasturida qatlamlar ustida ishlash, ma'lumotlarni dasturga kiritish.
18.	Ma'lumotlar bazasini dasturga kirgizish.
19.	Internet tarmog'ida arxeologik tadqiqotlar tarixi.
20.	Raqamli fotoapparatlarning arxeologik tadqiqotlarda qo'llanilishi.
21.	Zamonaviy axborot texnologiyalar yordamida arxeologik yodgorliklar xaritasini

- yaratish usullari.
22. Yaratilgan yodgorlik xaritasi asosida xisobotlar tayyorlash va uni chop etish.
 23. QGIS dasturida qatlamlar ustida ishlash, ma'lumotlarni dasturga kiritish.
 24. Ma'lumotlar bazasini dasturga kiritish.
 25. Internet tarmog'ida arxeologik tadqiqotlar tarixi.
 26. Raqamli fotoapparatlarning arxeologik tadqiqotlarda qo'llanilishi.
 27. Arxeologik yodgorliklarning xaritada joylashish nuqtasi asosida jadval yaratish va uni Arc GIS hamda Google Earth formatlarida saqlash.
 28. Arc GIS ma'lumotlar jadvali ko'rinishi ustida ishlash. Cvs, KMZ, KML formatlari haqida ma'lumot.
 29. Yodgorlik xaritasiga shartli belgilar o'rnatish va ularni taxrirlash. Xaritaga o'lchamlarni, kompos, koordinatalar, yozuvli elementlarni o'rnatish.

Laboratoriya 3-4 semestr mavzulari	
1.	Xaritalar turlari va ular haqida ma'lumot
2.	Arxeologiyada topografik xaritalarning qo'llanilishi
3.	Gis yordamida arxeologik yodgorliklar xaritasini tuzish
4.	Arc GIS va uning tarkibiy qismlari
5.	Koordinatalar tizimi haqida ma'lumot
6.	Arc GIS dasturida xaritalarni koordinatalar tizimi bilan bog'lash.

№	MUSTAQIL TA'LIM MAVZULARI:
1.	GIS tarixi va uning arxeologiya sohasida qo'llanilishi
2.	Arxeologiyada zamonaviy tadqiqot yo'nalishlari
3.	Gis yoki Gat tushunchasi
4.	GIS sohasida qo'llandirilgan dasturlar
5.	Xaritalar turlari va ular haqida ma'lumot
6.	Arxeologiyada topografik xaritalarning qo'llanilishi
7.	Gis yordamida arxeologik yodgorliklar xaritasini tuzish
8.	Arc GIS va uning tarkibiy qismlari
9.	Koordinatalar tizimi haqida ma'lumot
10.	Arc GIS dasturida xaritalarni koordinatalar tizimi bilan bog'lash.
11.	Arc GIS dasturida chiziqli, maydonli va nuqtali obyektlar yaratish.
12.	Arc GIS dasturida simvollar yaratish va ular ustida ishlash
13.	Atribut jadvallari yaratish va ular ustida ishlash
14.	Arxeologik yodgorliklar xaritasini yaratish va chop etish
15.	Ma'lumotlar jadvali haqida tushuncha.

16.	GPS va undan foydalanish
17.	Arxeologiyada zamonaviy qurilmalardan foydalanish
18.	Xaritalardan foydalanish
19.	Arxeologiyada zamonaviy axborot tizimlari.
20.	Vatanimiz va Xorijiy mamlakatlar xududida o'tkazilgan arxeologik tadqiqotlarda Gis tizimining qo'llanilishi

VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:

- Talabalarning tarixiy fanlarni o'zlashtirishlari uchun o'qitishning ilg'or usullari foydalanish, yangi informatsion - pedagogik texnologiyalarni tadbiq qilish muhim ahamiyatga egadir. Fanni o'zlashtirishda darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, ma'ruza matnlari, tarqatma materiallar, elektron materiallar, virtual stendlar, jadvallardan foydalaniladi.
- Dasturda berilgan mavzular ma'ruza, seminar shaklida olib boriladi. Shuningdek, fanning dolzarb masalalari mustaqil ish sifatida talabalarga o'zlashtirish uchun beriladi. Fan zamonaviy pedagogik texnologiyaning «bumerang», «aqliy hujum» singari uslublari orqali darslar olib boriladi.
- Mazkur fanni o'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy metodlari, pedagogik va axborot-kommunikasiya texnologiyalarini qo'llash nazarda tutilgan:
- Zamonaviy interfaol metodlari, Bingo, blis, ajurali arra, nilufar guli, menyu, algoritm, munozara, o'z-o'zini nazorat. "Aqliy hujum", "Klaster", "Bumerang", "Rezyume", "Blis-o'yin", FSMU, "Agar men...", "Muammo", 3x4, "Loyiha", "Labirint", "Charxpalak", 3 ta B, "Qora quti", "Insert", "Burchaklar", "5-si ortiqcha", "Kalit so'zlar", "Skrabey", "Sinkveyn" (Internet resurslari, slaydlar), ko'rgazmali vositalar (xaritalar, jadvalar, sxemalar va bosh.) pedagogik texnologiyalarini kullash nazarda tutiladi.

VII. Kreditni olish uchun talablar:

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'liq o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat ishini topshirish

Asosiy adabiyotlar	
1.	Жил Маккой. Геообработка в ArcGIS. 2004 г.
2.	Пфаф, БоБ Боз и др. Редактирование в ArcMap. 2004 г.
3.	Жонатан Бэйли, Симон Бу и др. ArcCatalog руководство пользователя. 2004 г.
4.	GIS for Archaeology. 2009. ESRI.COM
5.	Conolly, J. and Lake, M. 2006. Geographical Information Systems in archaeology. Cambridge:
6.	Cambridge University Press.
7.	Wheatley, D.W. and Gillings, M. 2002. Spatial technology and archaeology: a guide to the archaeological applications of GIS. London: Taylor & Francis.
8.	Saidov M. O'ng'alov L. Arxeologiyada GIS va zamonaviy qurilmalar o'quv qo'llanma. 2021

Tavsiya qilinadigan qo'shimcha adabiyotlar

1.	С.В. Лебедев, Е.М. Нестеров. Цифровая модель геоэкологической карты в ГИС ArcGIS.
2.	И.Ю. Чернова, И.И. Нугманов. Построение геолого-геофизических разрезов произвольной формы в среде ARC GIS. Методическое пособие. Казань. 2013 г.
3.	Солнцев Л.А. «Современные геоинформационные системы» Нижний Новгород. 2012 г.
4.	Самардак А.С. Геоинформационные системы. – Владивосток, 2005.
5.	Коновалова Н.В., Капралов Е.Г. Введение в ГИС: Учебное пособие – М.: ГИС-Ассоциация, 1997.
6.	Цыганок Д.А. Геоинформационные системы. Часть I,II. Введение в ГИС. Аппаратное обеспечение ГИС. Красноярск.2004.
7.	Ципилева Т.А. «Геоинформационные системы: Учебное пособие.» – Томск: Томский межвузовский центр дистанционного образования, 2004.
8.	Arc Catalog руководство пользователя. Russian Translation by DATA+, Ltd. 2003–2004.
9.	Arc Map руководство пользователя. Russian Translation by DATA+, Ltd. 2000–2004.
10.	Акашева А.А. Пространственный анализ данных в исторических науках. Применение геоинформационных технологий. Учебно-методическое пособие. Нижний Новгород. 2011.
11.	Гурьянова Л.В. Аппаратно–программные средства ГИС. – Минск: БГУ, 2004.
12.	Гурьянова Л.В. Аппаратно–программные средства ГИС: компьютерный практикум для студентов. Часть 2. – Полоцк: ПГУ, 2011.
13.	Журкин И.Г., Шайтура С.В. Геоинформационные системы. Кудиц-Пресс. Москва. 2009.
14.	Лебедев С.В., Нестеров Е.М. Цифровая модель геоэкологической карты в Гис. Arc GIS: Учебник. Издательство РГПУ имени А.И. Герцена. Санкт-Петербург. 2012.
15.	Лурье И.К., Косиков А.Г., Тутубалина О.В. и др. Компьютерный практикум по цифровой обработке изображений и созданию ГИС. – М.: Научный мир, 2004.
16.	Основы геоинформатики: в 2 кн.: учеб. Пособие для студентов вузов; под ред. В.С.Тикунова. – М.: Изд. Центр «Академия», 2004.

17	Fan dasturi Samarqand davlat universiteti O'quv-uslubiy kengashining yil "30.03" dagi "1" "- son bayonnomasi bilan ma'qullangan.	2024-
18	Fan/modul uchun mas'ullar: Baxronov.A.H "Arxeologiya" kafedrası o'qituvchisi.	

19

Taqrizchilar:

Ergashev.O – SamDU, "Arxeologiya" kafedrası dotsenti. (lehki)

Madaniy meros agentligi Yahyo G'ulomov nomidagi Samarqand arxeologiya instituti

K.I.X A.Sandiboyev (tashqi)

Fan dasturlari va mustaqil ta'lim topshiriqlarini ishlab chiqishga ma'sul ekspert guruhi a'zolari:

N.O'. Xolmatov


B.Ə. Raximov

Kafedra mudiri:**Kengash raisi:****O'quv ishlari bo'yicha prorektor:**

O.T. Ergashev

D.M. Djuraqulova

A.S. Soleyev.



**Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti tarix fakulteti
talabalari uchun tuzilgan "Arxeologiyada geografik axbarot tizmlari"
fanining FAN dasturiga**

TAQRIZ

Har bir xalqning kimligini bilish uchun uning tarixini, madaniyatini, to'm ma'noda bosib o'tgan yo'lini bilishimiz kerak. Shunday ekan, o'zbek xalqi o'zining 3000 yillik tarixi davrida ko'plab o'zgarishlarga duch keldi. Shu nuqtayi nazardan olganda, tarixning haqiqiy yuzini ochib beradigan, birlamchi manbani bera oladigan fan albatta, arxeologiya fani hisoblanadi.

Arxeologiyada geografik axbarot tizmlari fanining o'rganishda asosiy fanlar qatorida bo'lib, eng ishonchli manbalarni bera oladi. Har bir arxeolog bu fanning tub mohiyatini anglay olishi, uning sir-sinoatlarini bilishi lozim. Ayniqsa, arxeologiyasi sohasini o'rganish uning joylashgan o'rni, tarixiy topografiyasini bilishi lozim hisoblanadi. Bundan tashqari arxeologiyada geografik axbarot tizmlari fan sifatida shakllanishi uning rivojlanish bosqichlari talaba o'rganishi lozim.

Bugungi kunda arxeologiya fanining rivojlanishi uning yutuqlari istiqbollari bevosita ushbu fanning yutuqlari bilan bog'liq. Bu shubhasiz, GIS fanining yangi pog'onaga chiqqanligidan dalolat beradi. Mana shu jihatlarni inobatga olgan holda, "GIS" fanining asosiy fan sifatida oliy o'quv yurtlarining arxeologiya yo'nalishi talabalariga o'tilishi kerak bo'lgan fanlardan hisoblanadi.

Ta'lim amaliyotida O'quv dasturi va fan sillabusi yaratishning konsentrik (markazlashgan) hamda tizimli usullari bor. Konsentrik yo'l bilan tuzilgan O'quv dasturi va fan sillabusida ta'limning mazmuni yoki o'quv materiallari o'qitishning keyingi bosqichida yuksakroq darajada takrorlanishi ko'zda tutiladi. Tizimli usuldagi O'quv dasturi va fan sillabuslarida esa o'quv materiallari fan mantig'iga muvofiq soddadan murakkabga qarab ketma-ket joylashtiriladi.

Fan dasturida "Geografik axbarot tizmlari" fanining mazmuni, talabalar bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yilgan talablar bo'lajak arxeolog va arxeologiya fani o'qituvchisi kelgusidagi kasb faoliyati uchun mos keladigan nazariy tushunchalarni o'z ichiga qamrab olgan.


Ta'limning O'quv dasturi va fan sillabusi tomonidan belgilangan mazmuni darslik, o'quv qo'llanmalar, ko'rgazmali qurol va metodik tavsiyalarda to'la namoyon bo'ladi.

Mazkur fan Sillabusi "Arxeologiyada geografik axbarot tizmlari" fani bo'yicha yaratilgan bo'lib, unga mazkur yo'nalish xususiyatlarini hisobga olgan holda ma'ruza, amaliy va seminar mashg'ulotlari uchun mavzular va ularni bayon etish uchun zarur ko'rsatma va tavsiyalar keltirilgan. Shuningdek, mustaqil ta'lim shakllari va mavzulari, fanni o'qitish natijalari, ta'lim texnologiyalari va metodlari hamda asosiy va qo'shimcha adabiyotlar batafsil bayon etilgan.

Fan Sillabusida "Arxeologiyada geografik axbarot tizmlari" fanining mazmuni, talabalar bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yilgan talablar, bo'lajak arxeolog va arxeologiya fani o'qituvchisining kelgusidagi kasb faoliyati uchun mos keladigan amaliy va nazariy tushunchalarni o'z ichiga qamrab oladi.

"Arxeologiyada geografik axbarot tizmlari" fanining fan dasturi mazmuni va tuzilishi jihatidan o'quv dasturlari va fan Sillabuslariga qo'yiladigan barcha talablarga javob beradi deb hisoblayman va uni tanlov fan sifatida mazkur ta'lim yo'nalishi talabalarining ta'lim jarayonida foydalanish uchun tavsiya etaman.

Madaniy meros agentligi baho G'ulomov nomidagi Samarqand
arxeologiya instituti bo'limi A.Sandiboyev



Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti tarix
fakulteti talabalari uchun tuzilgan "Arxeologiyada geografik
axborot tizimlari" fanidagi FAN DASTURIGA

TAQRIZ

Bugungi kunda butun dunyoda arxeologiya fanining rivojlanishi insoniyatning o'rnini o'rganish o'ta muhim fan sohalaridan biri hisoblanadi. Bu shubhasiz, arxeologiya fani yangi zamonaviy texnologiyalar asosida yangi pog'onaga chiqdi. Mana shu jihatlarni inobatga olgan holda, "GIS" fani asosiy fan sifatida oliy o'quv yurtlarining Arxeologiya yo'nalishi talabalariga o'tilishi kerak bo'lgan fanlardan hisoblanadi. Bu fan arxeologiya fanini endi o'rganayotgan talabalar, bu fanga qiziquvchilar uchun fundamental ma'lumotlarni bera oladi.

Arxeologiyada GIS fanining predmeti maqsadi va vazifalari to'g'risida talabalarga umumiy tushuncha berish. Hamda ushbu bo'limda dastlabki kartagrafik bilimlarning shakllanishi, yurtimiz olimlari tomonidan yaratilgan xaritalar va ularning ahamiyati to'g'risida talabalarda bilim ko'nikmalar shakllanadi. Siyosiy va ijtimoiy iqtisodiy xaritalarning turlari bilan tanishadi.

O'quv dasturlari va fan sillabuslari ta'lim tizimidagi har bir o'quv fanining mazmuni va o'tilish tartibini, talabalar tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilim hamda ko'nikmalar hajmini belgilab beradigan, rasmiy pedagogik hujjat hisoblanadi. O'quv dasturi va fan sillabusi tegishli vazirliklar qoshidagi ilmiy metodik kengashlar yoki tegishli oliy ta'lim muassasalari kengashlari tomonidan tasdiqlanadi. O'quv fanining maqsad va vazifalarini belgilab berish O'quv dasturi va fan sillabusining muhim belgisi hisoblanadi. Chunki, ayni shu narsa yaratiladigan o'quv darsligi muallifiga muayyan nuqtayi nazarni tanlash, o'qituvchiga esa pedagogik mo'ljalni to'g'ri belgilash imkonini beradi.

Ta'lim amaliyotida O'quv dasturi va fan sillabusi yaratishning konsentrik (markazlashgan) hamda tizimli usullari bor. Konsentrik yo'l bilan tuzilgan O'quv dasturi va fan sillabusida ta'limning mazmuni yoki o'quv materiallari o'qitishning keyingi bosqichida yuksakroq darajada takrorlanishi ko'zda tutiladi. Tizimli usuldagi O'quv dasturi va fan sillabuslarida esa o'quv materiallari fan mantiqiga muvofiq soddadan murakkabga qarab ketma-ket joylashtiriladi.

"Arxeologiyada geografik axbarot tizimlari" fanining fan dasturining mazmuni va tuzilishi jihatidan o'quv dasturlari va fan Sillabuslariga qo'yiladigan barcha talablarga javob beradi deb hisoblayman va uni mazkur ta'lim yo'nalishi talabalari uchun ta'lim jarayonida foydalanish uchun tavsiya etaman

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti tarix fakulteti
Arxeologiya kafedrasi mudiri

(PhD), dotsent

34

O.T.Ergashev